

“O‘QUVCHILAR VA SINFDAGI XILMA-XILLIK”

*Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Logopediya yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

Ibragimova Durdona Dilmurod qizi

*Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
Azimova Dilnoza Sherzodvna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinfdagi xilma-xillik va inklyuziv ta’limning o‘rni, alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalar bilan normotipik o‘quvchilarning birgalikda ta’lim olishini tashkil etish masalalari yoritilgan. Inklyuziv ta’lim jarayonida maktab jamoasi, maxsus pedagoglar, tyutorlar hamda ota-onalarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, inklyuziv ta’limning ijtimoiy va psixologik afzalliklari, o‘quvchilar orasida do‘stona muhitni shakllantirish, teng imkoniyatlarni ta’minlash bo‘yicha samarali yondashuvlar ko‘rsatib berilgan. Mazkur yondashuv barcha bolalarning sifatli ta’lim olishiga, ijtimoiy integratsiyasiga va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, xilma-xillik, alohida ta’lim ehtiyoji, maxsus pedagog, tyutor, psixologik qo‘llab-quvvatlash, teng imkoniyatlar, integratsiya, inklyuziv sinf, bag‘rikenglik.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы разнообразия в классе и роли инклюзивного образования, а также организация совместного обучения детей с особыми образовательными потребностями и нормотипичных учащихся. Активное участие школьного сообщества, специальных педагогов, тьюторов и родителей имеет решающее значение в процессе инклюзивного образования. Также показаны социальные и психологические преимущества инклюзивного образования, эффективные подходы к формированию дружественной атмосферы среди учащихся и обеспечению равных возможностей. Этот подход служит обеспечению качественного образования, социальной интеграции и нахождению своего места в обществе для всех детей.

Ключевые слова: инклюзивное образование, разнообразие, особые образовательные потребности, специальный педагог, тьютор, психологическая поддержка, равные возможности, интеграция, инклюзивный класс, толерантность.

Abstract: This article highlights the issues of classroom diversity and the role of inclusive education, as well as the organization of joint education for children with special educational needs (SEN) and normotypical students. The active participation of the school community, special educators, tutors (or teaching assistants), and parents

is crucial in the process of inclusive education. The social and psychological benefits of inclusive education, effective approaches to fostering a friendly environment among students, and ensuring equal opportunities are also demonstrated. This approach serves to provide quality education, social integration, and finding their place in society for all children.

Keywords: inclusive education, diversity, special educational needs, special educator, tutor (or teaching assistant), psychological support, equal opportunities, integration, inclusive classroom, tolerance.

Kirish:

Nogironlik tushunchasini qanday talqin qilish, unga qanday yondashish va uni jamiyatda qanday tushunish kerakligini ifodalovchi nazariy va amaliy yondashuvlardir.

Har bir model nogironlikni turlicha izohlaydi va unga qarshi kurashish, huquqiy asoslarni belgilash hamda ijtimoiy siyosatni shakllantirishda turli xil yondashuvlarni taklif qiladi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki (2021-2022 o'quv yilida tajriba-sinov tariqasida tashkil etilgan umumta'lim maktablaridagi) inklyuziv sinflardagi, ba'zi normotipik bolalar ota-onalari o'z farzandlarini alohida ta'lim ehtiyojli o'quvchi bilan birga ta'lim olishini istamay boshqa sinf yoki maktabga olib ketdilar.

Siz tushunishingiz kerakki, bolalar muvaffaqiyatsizlikka uchramaydi, balki bolalar orasida do'stona muhitni yaratadi, kamsitmaslik, bag'rikenglik va bir-biriga yordam berish xissini uyg'otadi.

Inklyuziv yondashuvlar bu bolalarni o'rganish va muvaffaqiyatga erishishda qo'llab-quvvatlaydi, ularga yaxshi hayot uchun imkoniyatlar beradi.

Inklyuziv ta'limni psixologik qo'llab-quvvatlashning maqsadi har xil boshlang'ich imkoniyatlariga ega bo'lgan barcha toifadagi bolalarning sifatli ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdir.

Maktab - Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga qamrab oladi va alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatadi.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolani normotipik bolalar bilan birgalikda ta'lim olishiga zamin yaratadi.

Maktab direktori: Direktor qo'llab-quvvatlash guruhining a'zosi.

U dastur rejalarini tayyorlash, amalga oshirish va baholashni ta'minlaydi.

Direktor o'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, yordamchi hodimlarni ta'minlaydi, talabga muvofiq tegishli materiallar va o'quv mashg'ulotlarini o'tkazadi.

Direktor ko'pincha jamoaviy qarorlarning bajarilishini ta'minlaydigan shaxsdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi: Butun dunyo hamjamiyati tomonidan qabul qilingan bola huquqlariga doir xalqaro va O'zbekistonda qabul qilingan qonunlar, qarorlarni bilishi va ularga amalga oshirishi zarur. ta'lim-tarbiya jarayonini davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv reja va dastur asosida maxsus korreksion tuzatish usullaridan foydalanilgan holda olib boradi; alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini bilishi va ta'lim jarayonini shunga mos ravishda olib bora olishi.

Alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarning imkoniyatiga mos ravishda individual yondoshuvni amalga oshirish (dars davomida va darsdan tashqari);

Inklyuziv boshlang'ich sinf o'qituvchisi har doim alohida ta'lim ehtiyojli o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan muloqotda bo'lishadi.

Maxsus o'qituvchi: Maxsus o'qituvchi butun ta'lim jarayonida korreksion rivojlantiruvchi faoliyat olib boradi.

Sinf o'qituvchisi tomonidan o'tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzu yuzasidan alohida ehtiyojli o'quvchiga individual tarzda tushuntirib beradi.

Tyutor (yordamchi pedagog xodim) - Inklyuziv ta'lim sinflari joriy qilingan maktablarga tyutorlar (yordamchi pedagog xodim) sifatida tegishli malakaga ega oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishidagi yuqori kurs talabalari pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida jalb qilinadi.

Talabalarni inklyuziv ta'lim sinflari joriy qilingan maktablarga jalb etish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Ota-onalarning ishtiroki qanday?

Bizning modelda ota-onalar nafaqat ko'maklashuvchi, balki asosiy rolga ega ishtirokchilar.

Ular bolani uyda bo'lgan vaqtlarida barcha faoliyatga jalb etishlari, sekin-asta nafaqat atrofdagilarning, balki barchaning uning rivojlanishidagi muammoga oddiy holdek munosabatda bo'lishlariga, turfaliklarni yengishga olib keladi.

Maktab-internat o'quvchilarini reabilitatsiyasi va integratsiyasi ga erishish shart-sharoitlari:

Imkoniyati cheklangan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olishga bo'lgan huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish; ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan mebel, texnik vositalar bilan jihozlangan sinfxonalari (interaktiv doskalar, audio, video, multimediyao'quvmaternali, kompyuter texnikasi, ko'rgazmali va tarqatma materiallar ...);

Maktab-internat o'quvchilarini reabilitatsiyasi va integratsiyasiga erishish shart-sharoitlari:

Imkoniyati cheklangan bolalarning moslashishi va integratsiyasiga erishish uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash;

Imkoniyati cheklangan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olishga bo'lgan huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

Har bir ta'lim muassasasi "Nizomda" belgilangan tartibda tegishli jihozlar bilan ta'minlanishi;

Xulosa:

Kuzatuvlar va o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, sinfdagi xilma-xillikni to'g'ri boshqarish va inklyuziv ta'lim yondashuvini to'g'ri yo'lga qo'yish har bir bola uchun teng imkoniyatlar yaratishda muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'lim — bu alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar va normotipik o'quvchilarning birgalikda ta'lim olishini ta'minlovchi ijtimoiy-pedagogik jarayondir.

Bunda maktab ma'muriyati, o'qituvchilar, maxsus pedagoglar, tyutorlar va otalarning hamkorligi muhim o'rin tutadi. Inklyuziv yondashuv bolalarda do'stona muhitni shakllantiradi, o'zaro hurmat, bag'rikenglik, yordam berish va ijobiy munosabatni kuchaytiradi. Natijada imkoniyati cheklangan o'quvchilar jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashadi va o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, ta'lim muassasalarini zaruriy texnik jihozlar va maxsus moslamalar bilan ta'minlash, pedagoglarning malakasini oshirish, ota-onalarning faol ishtirokini ta'minlash bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Demak, sinfdagi xilma-xillikka hurmat bilan yondashish va inklyuziv ta'limni rivojlantirish — bu nafaqat alohida ehtiyojli bolalar, balki barcha o'quvchilar uchun sifatli ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.